



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2025/1 (14)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зохилов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Xaydarova J.A. Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati.....	4
--	---

SOTSILOGIYA

Muxamedjanova L. Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar – adolat, muhabbat, do'stlik, birodarlik, o'zaro hurmat-izzat tamoyillari.....	12
Axmedova D.O. Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya	19
Vaxidova S.A. Gender rollarining evolyutsiyasida ta'lim institutining o'rni: avlodlararo ijtimoiy tahlil.....	26
Komilova X.T. Xotin-qizlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining sotsiologik tahlili	37
Xudoyberdiyeva M. O'smir yoshlarda kitobxonlik tushunchasi va kitob o'qishni rag'batlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlili.....	42
Alimasov V.A. O'zbekistonning oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi (ijtimoiy-falsafiy yondashuv).....	47
Samanova Sh.B. Ekologik sivilizatsiya rivojida inson-tabi'at munosabatlarining o'zgarib borishi	53

OILA VA JAMIYAT

To'rayev O.B. Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlik holatiga demografik omilning ta'siri	59
Saipova M.L. Migratsiya dahl qilgan oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni	68
Abduraximova F.Y. Oilalarda ma'naviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirishning innovatsion usullari	73
Ganiyev A.A. The role of pre-migration expectations in post-migration stress among Uzbek immigrants in Russia	77
Toshmurodov M.I. Oilaviy qadriyatlar va ularni harakatlantiruvchi determinantlar tasnifi	82

PSIXOLOGIYA

Bo'riyeva M.Sh. Oila institutini mustahkamlashning psixologik aspektlari	88
Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	93
Raximova X. Oilada shaxsdagi stress va o'ziga nisbatan ishonchsizlik moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltiruvchi psixologik omil sifatida	99
Nasrullayeva A.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari	104
Sultanova S.M. Ayollarda aybdorlik hissi vujudga kelishining sabablari	110
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного микроклимата на эмоциональное состояние личности в контексте тревожности	115
Асанова Г.М. Процессы социально-психологической адаптации родителей детей, больных онкологией	122
Olimjonova Z.B. Sevgining ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida xorij olimlari tomonidan tadqiqi...128	
Sharipova A.S. Analysis of the features of adaptation of adolescents to society in conditions of living in a family with violence	136

PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida oilaning ta'limiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tahlil va tavsiyalar.....	141
---	-----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Hojiyev R.B. Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish masalalari (Turkiya tajribasi misolida)	147
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorligining ilmiy tahlili.....	154
Bakirova N.B. Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash mexanizmlari....	161
Мусаева М.И. Ранняя реабилитация и социализация детей с двигательными нарушениями	168



Komilova Xurshida Toxirovna,

Oila va gender ilmiy-tadqiqot institut doktoranti, dotsent

e-mail: ilm.hurshida@gmail.com

XOTIN-QIZLAR ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. Davlat va jamiyat ijtimoiy hayotida yuzaga kelayotgan muammolarga ilm-fan orqali yechim izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning hayotida ta'lim va ilm-fanning o'rni, ijtimoiylashuviga ta'siri hamda mazkur sohadagi xotin-qizlarning ijtimoiy qiyofasiga xos xususiyatlarni aniqlash asosida aniqlangan asosiy jihatlarning tadqiqot natijalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: tadqiqotchilik, ilm, fan, xotin-qizlar, rahbar ayollar, gender tengligi, gender stereotiplar, suhbat metodi, anketa, sotsiologik tahlil, ayollarga imtiyozlar.

Аннотация. Поиск решений проблем социальной жизни государства и общества посредством науки имеет большое значение. В статье освещаются результаты исследования роли образования и науки в жизни женщин-ученых, их влияния на их социализацию, а также основные аспекты, выявленные на основе определения особенностей социального образа женщин в этой сфере.

Ключевые слова: исследование, наука, наука, женщины, женщины-лидеры, гендерное равенство, гендерные стереотипы, метод интервью, анкетирование, социологический анализ, привилегии для женщин.

Annotation. The search for solutions to problems of social life of the state and society through science is of great importance. The article highlights the results of a study of the role of education and science in the lives of women scientists, their influence on their socialization, as well as the main aspects identified on the basis of determining the characteristics of the social image of women in this field.

Keywords: research, science, women, women leaders, gender equality, gender stereotypes, interview method, questionnaire, sociological analysis, benefits for women.

Kirish. 2022–2023-yillarda xotin-qizlarning ilm-fanda faolligining o'sish dinamikasini kuzatish maqsadida Andijon, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahridagi o'rta maktablarning yuqori sinf o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, shuningdek, mahallalardagi xotin-qizlar faollari o'rtasida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqotning maqsadi ilmiy faoliyatning rivojlanishida gender farqlarning ta'sirini aniqlash, ayol va erkak rollarini taqsimlashda an'anaviy

stereotiplarni o'rganish, xotin-qizlar ilmiy faoliyatining oilaviy rollar bilan birlashishi bilan bog'liq masalalar va olim ayollarning ijtimoiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda standartlashtirilgan anketa vositasida bevosita so'rov o'tkazildi. Shuningdek, so'rov usullaridan tashqari sotsiologik tahlil qilish usulidan ham foydalanildi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fandagi faolligi mintaqalarda

turlicha ekanini, o'ziga xosliklar mavjudligini ko'rsatdi. Sotsiologik suhbat metodi esa xotin-qizlarning ilm-fan sohalaridagi vakillari bilan yaqindan tanishib ilm-fanning nozik sir-asrorlarini o'rganish va faoliyatini ijobiy baholashga erishildi.

Aholining intellektual mahsulotlarga bo'lgan qiziqishi va ularni qadrlash darajasi bilan bog'liq muammolar hanuzgacha mavjud. Davlat va jamiyat ijtimoiy hayotida yuzaga kelayotgan muammolarga ilm-fan orqali yechim topish muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning mehnat mahsuliga bo'lgan zaruratni shakllantirish ularning jamiyatdagi obro'si va qadr-qimmatini oshiradi. Shuningdek, ilmiy faoliyatda motivatsiya muhim hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Xotin-qizlarning ilm-fandagi faoliyatining tarixiy jihatlarini bo'yicha N.Jo'rayeva¹ "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni", xotin-qizlarning ilm-fandagi faoliyatini yuksaltirishning huquqiy jihatlarini bo'yicha Q.Abdurasulova² "Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari", G.Matkarimova³ "Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari" nomli dissertatsiyalariga tadqiqot ishlarini olib borgan. Xotin-qizlarning ilm-fandagi faoliyatini yuksaltirishning siyosiy jihatlarini E.Sultonova⁴ tomonidan "Ayol davlatning rivojlanish strategiyasi"da o'rganilgan.

Xotin-qizlarning ilm-fandagi faoliyatining ijtimoiy-falsafiy, pedagogik-psixologik jihatlarini S.Safayeva⁵ning "Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar", A.Huseynova⁶ning "Fuqorolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ayollar faolligini

oshirish muammolari", X.Nasrullayeva⁷ning "O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili", M.Karimova⁸ning "O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza qilishda islomiy qadriyatlarning o'rni", pedagogik-psixologik N.Egamberdiyeva⁹ning "Gender tadqiqotlari, gender tahlili, monitoring va baholash", T.Egamberdiyeva¹⁰ning "O'zbekiston Respublikasi ma'naviy hayotida ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari", O.Shamiyeva¹¹ning "Rahbar ayollar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" kabi mavzulardagi tadqiqotlarida keng o'rganilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Mazkur tadqiqot "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"¹²da "2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga oshirish" ko'zda tutilganini inobatga olgan holda ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning faoliyatiga oid muammolarini aniqlash maqsadida, asosan, 25–40 yoshlar atrofidagi xotin-qizlar o'rtasida o'tkazildi.

Ilm yo'lidagi xotin-qizlarning oilaviy holati va o'ziga xos jihatlarini aniqlash maqsadida respondentlarning oilaviy holatiga ko'ra tarkibi ham o'rganildi. Oilaviy holatiga ko'ra, respondentlarning 80,6 foizi turmush qurgan, 11,4 foizi turmush qurmagan, 4,5 foizi ajrashgan va 3,5 foizini bevalar tashkil etgan. Ularning 69,7 foizi ziyolilar oilasida tug'ilgan bo'lsa, 27,8 foizi ishchilar oilasida tug'ilgan (1-rasm).

¹ Jo'rayeva N.A. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni (XX asrning 20-30 yillari): tar. fanl. nomz. ...dis. – Toshkent, 2004. – 161 b.

² Abdurasulova Q. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari: yurid. fan. dokt. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2006. – 42 b.

³ Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari: yurid. fan. dokt. ...dis. – Toshkent, 2002. – 219 b.

⁴ Sultonova E. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasi (Global muammo sifatida): siyos. fan. dokt. ...dis. – Toshkent, 2005. – 265 b.

⁵ Safayeva S.N. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlarini: fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2002. – 177 b.

⁶ Huseynova A.A. Fuqorolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ayollar faolligini oshirish muammolari (ijtimoiy-falsafiy tahlili): fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2010. – 262 b.

⁷ Nasrullayeva X. O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili: fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2000. – 137 b.


⁸ Karimova M.A. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza qilishda islomiy qadriyatlarning o'rni: fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2008. – 142 b.

⁹ Egamberdiyeva N., Xonturayev B. Gender tadqiqotlari, gender tahlili, monitoring va baholash: monografiya. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – 104 b.

¹⁰ Egamberdiyeva T.A. O'zbekiston Respublikasi ma'naviy hayotida ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari: ped. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2005. – 322 b.


¹¹ Shamiyeva O.R. Rahbar ayollar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Xalq ta'limi organi misolida): psix. fan.nomz. ...dis. – Toshkent, 2009. – 141 b.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni.



1-rasm. Respondentlarning oilaviy holati bo'yicha taqsimlanishi¹³ (foiz hisobida)

Jamiyat hayotida ilm-fan taraqqiyotini ta'minlashda eng muhim omil sifatida ilm-fanning yetarli darajada moliyalashtirilishi qayd etilgan bo'lib, mazkur javob respondentlarning qariyb beshdan uch qismi (57,6%) tomonidan qayd etilgan (2-rasm).



2-rasm. Respondentlarning jamiyat hayotida ilm-fan taraqqiyoti nimalarga bog'liqligi borasidagi fikrlari¹⁴ (foiz hisobida)


2-rasmdan ko'rinadiki, jamiyat hayotida ilm-fan taraqqiyoti korrupsiyaning yo'qotilishida (43,9%), fan va ishlab chiqarish uzviy bog'lanishida (39,1%), odamlarning turmush sifati va iqtisodiy imkoniyatlari oshishi (34,5%), shuningdek, qobiliyatlilarga imkon yaratish lozimligi (31,7%) ham e'tiborli sanaladi.

Erkaklar fikrida moliyalashtirish (66,2%) va fan-ishlab chiqarish uzviy bog'lanishi (56,8%) yetakchi o'rinda turadi. Ayollar esa ilm-fan taraqqiyotida ijtimoiy masalalarga ko'proq e'tibor qaratishgan. Ular orasida moliyalashtirish (56,8%), korrupsiyaning yo'qotilishi (44,9%) va qobiliyatlilarga imkoniyat yaratish (33,4%) eng ko'p tanlangan. Shuningdek, gender tengligini ta'minlash (11,3%) va ayollarga imtiyozlar yaratish (9,3%) masalalariga ahamiyat berilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, ayollar ilm-fan taraqqiyotida, asosan, ijtimoiy masalalar va qo'llab-

quvvatlash choralari e'tibor qaratganlar, xususan **gender tengligi va ayollarga imtiyozlar** yaratishni muhim deb hisoblashgan.

Aksariyat respondentlar uchun (75,2 %) xotin-qizlarning ta'lim olishi o'z tug'ilib o'sgan oilasida (olima bo'lishi) doimiy ravishda qo'llab-quvvatlangan (3-rasm).



3-rasm. Respondentlarning tug'ilib o'sgan oilasida xotin-qizlarning ta'lim olishi (olima bo'lishi)ga bo'lgan e'tibor borasidagi fikrlari¹⁵ (foiz hisobida)

Shu bilan birga, respondentlarning 17,7 foizi tug'ilib o'sgan oilada xotin-qizlarning ta'lim olishi ko'p hollarda qo'llab-quvvatlangan, har yigirma nafaridan bittasi (4,6 %) kamroq qo'llab-quvvatlanganini ta'kidlasa, 2,2 foizi e'tibor berilmaganini (shundan 1,1 foizi umuman e'tibor berilmagan) ma'lum qilishdi.


Ayollarning ilmiy faoliyatida oila va yaqinlarning qo'llab-quvvatlashiga ko'proq ehtiyoj sezilishi, ilmiy jamoalarda inklyuziv madaniyatning yetarli darajada shakllanmagani ularning kasbiy faoliyatida yetarli darajada xayrixohlik yetishmayotganidan darak beradi. Agar ayollarga nisbatan tenglik muhiti yaratilmasa, ularning ish joyidagi ishtiroki va ilmiy faoliyatdagi rivojlanishida to'siqlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ilmiy jamoalarda gender tengligini ta'minlash, qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish hamda rahbarlar va hamkasblar tomonidan ayollarning ilmiy yutuqlarini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xotin-qizlarning kelajakdagi asosiy maqsadlari orasida kasbiy rivojlanish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Respondentlarning katta qismi (60,7%) o'z sohasini rivojlantirishni eng muhim maqsad deb belgilagan, bu esa ularning professional taraqqiyotga bo'lgan intilishini ko'rsatadi.

¹³ Diagramma muallif tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

¹⁴ Diagramma muallif tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.


¹⁵ Diagramma muallif tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.



4-rasm. Respondentlarning kelajakdagi asosiy maqsadlari (foiz hisobida)

“Ilm-fanga hissa qo'shish” maqsadi 45,4 foiz ishtirokchi tomonidan qayd etilgan bo'lib, bu ularning jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga bo'lgan harakatlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, “baxtli oila qurish” (38,2%) va “o'zi istagan ish bilan shug'ullanish” (34,3%) ham katta ahamiyatga ega maqsadlar sifatida aniqlangan.

Respondentlarning aksariyati (84,6%) xotin-qizlarning ma'lumotli bo'lishi juda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi (5-rasm).



5-rasm. Xotin-qizlarning ma'lumotli bo'lishi qay darajada muhim ahamiyatga egaligi borasidagi fikrlar¹⁶ (foiz hisobida)

Xotin-qizlarning ma'lumotli bo'lishi o'ta muhim deb hisoblaydiganlar orasida ayollar ulushi 86,2%ni tashkil etadi va bu erkaklarnikiga qaraganda (68,9%) ancha yuqori. Shuningdek, “u qadar muhim emas” va “muhim emas” deb javob bergan erkaklar 4,1 foizni tashkil qilgan bo'lgan bo'lsa, ayollar orasida bu ko'rsatkich juda past – mos ravishda 1,4 va 0,0 foiz.

Bu gender tengsizligi, ta'lim imkoniyatlarining cheklangani va ayollar uchun ma'lumotli bo'lishning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishdagi ahamiyatini aniq anglashi bilan bog'liq. Ayollar ta'limni o'zlarining ijtimoiy mavqeyi va mustaqilligi uchun muhim vosita sifatida ko'rishsa, erkaklar orasida bu masalaga nisbatan mo'tadil qarash saqlanib qolmoqda. Bu, o'z navbatida, gender tengligini ta'minlash uchun ta'lim sohasida ayollar uchun kengroq imkoniyatlar

yaratilishini yanada kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Yakuniy qism. Shunday qilib, ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning hayotida ta'lim va ilm-fanning o'rni, ijtimoiylashuviga ta'siri hamda mazkur sohadagi xotin-qizlarning ijtimoiy qiyofasiga xos xususiyatlarni aniqlash asosida quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

1. Respondentlarning aksariyati (75,2%) tug'ilib o'sgan oilasida xotin-qizlarning ta'lim olishi va ilm-fandagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lganini ta'kidlaydi. Oiladagi ijobiy muhit ayollarning ta'lim va ilm sohalarida rivojlanishiga yordam bergan. Bu esa oilaviy tarbiya va qadriyatlar xotin-qizlarning ijtimoiylashuviga asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Ammo ba'zi hollarda oila muhitida ayollarning yetarlicha qo'llab-quvvatlamasligi, ayniqsa, qishloq hududlarida ularning imkoniyatlarini cheklashi ham kuzatilgan.

2. Ayollarning ilm-fandagi ishtiroki oilaviy vazifalarga bog'liq bo'lgan to'siqlar tufayli cheklangan. Ayollar, ayniqsa, uy-ro'zg'or ishlari (52,8%) va farzandlar tarbiyasi (45,9%) uchun juda ko'p vaqt ajratishga majbur. Bu holat ularning ilm-fandagi ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oiladagi an'anaviy rollarning saqlanib qolishi ayollarning faoliyatini cheklashda davom etmoqda.

3. Ilm-fandagi ayollar uchun eng katta to'siqlardan biri iqtisodiy ko'makning yetishmasligi sanaladi. Respondentlarning 23,5 foizi moliyaviy qiyinchiliklarni jiddiy muammo deb hisoblaydi. Shu sababli, ayollarning ta'lim olishi va ilm-fandagi ishtiroki uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlov, grantlar va imtiyozli kreditlar kabi mexanizmlar kuchaytirilishi zarur.

4. Ayollarning ilm-fandagi ishtirokida davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlar muhim o'rin tutadi. Moliyaviy rag'bat, ta'lim grantlari va imtiyozli shart-sharoitlar xotin-qizlarning kasbiy rivojlanishiga katta yordam beradi. Buning uchun davlat siyosatida ayollar uchun qulay ish grafiklari va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

5. Xotin-qizlarning oliy ma'lumotli bo'lishi jamiyatning ma'naviy rivojiga, farzandlar tarbiyasi va oiladagi ijtimoiy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Respondentlarning aksariyati (34,2%) sifatli ta'lim farzandlar tarbiyasini yaxshilashini qayd etgan bo'lsa, 29,2 foizi ta'lim jamiyat ma'naviyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblagan.

¹⁶ Diagramma muallif tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

6. Tadqiqot davomida shahar aholisi o'zlarini ijtimoiy faol deb hisoblashga moyil ekanligi aniqlandi. Shahar joylaridagi respondentlar orasida ijtimoiy faollik 65,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, qishloq joylarida bu ko'rsatkich 55,6 foizni tashkil etdi. Bu shahar va qishloq joylaridagi ijtimoiy muhit va imkoniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi.

7. Jamiyatda ayollar, asosan, oilaviy vazifalar bilan bog'langan rollarga ega ekani ma'lum bo'ldi. Oilada ayollarga ko'proq uy yumushlari va bola tarbiyasi bilan bog'liq mas'uliyat yuklangan. Bu holat ularning ta'lim va ilm-fandagi ishtirokiga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, gender stereotiplari ayollarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklamoqda.

8. Ayollarning ta'lim va ilm-fan sohasida rivojlanishini rag'batlantirish uchun moddiy yordam asosiy omil bo'lib qolmoqda. Respondentlarning 45,1 foizi moddiy qo'llab-quvvatlashni muhim deb hisoblagan. Bundan tashqari, ta'limdagi imtiyozlar (29,8%) va moslashuvchan ish shart-sharoitlari rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida qayd etilgan.

9. Ayollarning ilm-fandagi ishtiroki va oilaviy vazifalar o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi muammoligicha qolmoqda. Charchoq (55,1%) va vaqt yetishmovchiligi (54,9%) ularning ilmiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun oiladagi vazifalarni teng taqsimlash va gender tengligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni.
2. Jo'rayeva N.A. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni (XX asrning 20-30 yillari): tar. fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2004. – 161 b.
3. Abdurasulova Q. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari: yurid. fan. dokt. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2006. – 42 b.
4. Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari: yurid. fan. dokt. ...dis. – Toshkent, 2002. – 219 b.
5. Sultonova E. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasi (Global muammo sifatida): siyos. fan. dokt. ...dis. – Toshkent, 2005. – 265 b.
6. Safayeva S.N. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar: fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2002. – 177 b.
7. Huseynova A.A. Fuqorolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ayollar faolligini oshirish muammolari (ijtimoiy-falsafiy tahlili): fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2010. – 262 b.
8. Nasrullayeva X. O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili: fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2000. – 137 b.
9. Karimova M.A. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza qilishda islomiy qadriyatlarining o'rni: fals. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2008. – 142 b.
10. Egamberdiyeva N., Xonturayev B. Gender tadqiqotlari, gender tahlili, monitoring va baholash: monografiya. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – 104 b.
11. Egamberdiyeva T.A. O'zbekiston Respublikasi ma'naviy hayotida ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari: ped. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2005. – 322 b.
12. Shamiyeva O.R. Rahbar ayollar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Xalq ta'limi organi misolida): psix. fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2009. – 141 b.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U.**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.